NAVOIY VILOYATI XATIRCHI TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

Xatirchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 34 uy, e-mail: xatirchi@nv.uz

2022 - yil 18 - oktabr 246-5-77-Q/22 Xatirchi tuman hokimligi

Xatirchi tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga svetaforlarni o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Xatirchi tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetaforlar o‘rnatilsin.

2. Tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK (I.Muxammadiyev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (J.Raxmonov)ga tumanda mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetaforlarni o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalari so‘zsiz bajarilsin.

4. Tuman IIB YHXG (B.Nazarov)ga mazkur svetaforlar o‘rnatilishini hamda tuman hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Xatirchi hayoti” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.Farmonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Nizamov**

Xatirchi tuman hokimining
2022 yil 18 oktabrdagi
246-5-77-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud avtobil yo‘llarga o‘rnatiladigan svetaforlar

RO'YXATI

T/r	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni
1	A.Yassaviy	11 km+PK 400 (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
2	A.Yassaviy	13 km+PK 400 (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
3	Farxod va Shirin	123km+PK 200(yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
4	Mustaqillik	124 km+PK 700 (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
5	Chechakota MFY	130km (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
6	Galabek MFY	132km (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
7	Fidokor MFY	138km+PK300 (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
8	Tamabaxrin MFY	147km+PK500 (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1

Xatirchi tuman hokimining
2022 yil 18 oktabrdagi
246-5-77-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Tumanda mavjud avtomobil yo‘llarga o‘rnatiladigan svetafor bo‘yicha MA’LUMOT

T/r	Ko‘chanomi	Joylashtirishjoyi	Soni
1	A.Yassaviy	11 km+PK 400 (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
2	A.Yassaviy	13 km+PK 400 (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
3	Farxod va Shirin	123km+PK 200(yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
4	Mustaqillik	124 km+PK 700 (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
5	Chechakota MFY	130km (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
6	Galabek MFY	132km (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
7	Fidokor MFY	138km+PK300 (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1
8	Tamabaxrin MFY	147km+PK500 (yo‘lning boshlanishi) o‘ng tomon	1

«Kelishildi»

Tuman IIB YHXG boshlig‘i **B.Nazarov**

Tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK direktori **I.Muxammadiyev**

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i **J.Raxmonov**